



JIGAR SARATONINI ANIQLASHDA MRT NING AHAMIYATI

*Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti
2-son Davolash ishi fakulteti talabasi
Rahmatullayva Ra'no Madrahim qizi*

Dolzarbligi Jigar saratoni (gepatosellyular karsinoma) dunyo bo'ylab o'lim darajasi bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Har yili dunyo bo'ylab 780 minggacha yangi tashxis qo'yilgan jigar saratoni bilan kasallangan bemorlar ro'yxatga olinadi. Ushbu turdagi onkologiya juda noqulay prognozli agressiv kursga ega. Jigar saratoni belgilari bo'lgan barcha bemorlarning taxminan 25% virusli gepatit C tashxisi qo'yilgan va taxminan 40% gepatit B virusining surunkali tashuvchisidir. Surunkali gepatit B birlamchi jigar saratoni, gepatotsellyular karsinomaning asosiy sababidir.

Zamonaviy radiologiyada Magnit Rezonans Tomografiya (MRT) dinamik kontrastlanish xususiyati, DWI orqali hujayra zichligini baholash, kichik o'simtalarni aniqlash qobiliyati bilan ajralib turadi.

Maqsadi Jigar saratonini aniqlashda MRT ning imkoniyatlari, kompyuter tomografiyaga nisbatan samaradorligini aniqlash.

Materiallar va usullar Ushbu ishda zamonaviy ilmiy adabiyotlar, klinik kuzatuv ma'lumotlar hamda tasviriy diagnostika natijalari integrativ yondashuv asosida kompleks o'rganildi. Jigar o'smalarini (xususan, gepatosellyulyar karsinoma) aniqlashda ko'p fazali kontrastli kompyuter tomografiya (KT) va magnit-rezonans tomografiya (MRT) ma'lumotlari solishtirildi.



Kompyuter tomografiya tekshiruvlari kontrast modda yuborilgandan so'ng arterial, portal venoz va kechki (deyaled) fazalarda bajariladi. MRT tekshiruvlari esa T1-va T2-vaznlangan tasvirlash rejimlari, diffuziya -vaznlangan tasvirlar (DWI) hamda zarur hollarda kontrast modda (gadoliniiy asosida) bilan boyatilgan sekvensiyalar yordamida amalga oshirildi.

Natijalar Tahlillar shuni ko'rsatdiki, MRT jigar hujayrali karsinomani (HCC) aniqlashda yuqori diagnostik samaradorlikka ega bo'lib, sezgirlik 85% - 88% va spetsifiklik 90%-94% ni tashkil etadi. Diffuzion-vaznlangan tasvirlash (DWI) qo'llanilganda ayniqsa kichik o'lchamli o'smalarni aniqlash imkoniyati oshadi. MRT jigar benign va malign o'smalarini differensial diagnostika qilishda yuqori aniqlikni taminlaydi hamda erta bosqichdagi o'zgarishlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa Jigar saratonini (hepatosellular karsinoma) erta va aniq aniqlashda magnit – rezonans tomografiya (MRT) zamonaviy tasviriy diagnostika usullari ichida yuqori samaradorlikka ega usul hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, MRT jigar o'smalarini aniqlashda yuqori sezgirlik va spetsefiklikka ega bo'lib, ayniqsa kichik o'lchamdagi va erta bosqichdagi o'choqlarni aniqlashda katta ustunlik beradi.

